

## PSIXOLOGIYA SOHASIDAGI MUAMMOLAR

**Madaminova Nargiza Qurbanbayevna**

*Berdoq nomidagi Qoraqolpoq Davlat*

*Universiteti Sa'natshunoslik fakulteti. Psixologiyava*

*Pedagogika Kafedrası. Amaliy psixologiya yònalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** *Psixologiya rivojlanayotgan davlatlarda insonlarning psixologiya sohasiga bòlgan tushunchalari ham òzgacha bòladi. Shu sababdan psixologiya sohasi bizning Òzbekistonda endi rivojlanayotgan sohalar qatoriga kiradi. Psixologiya sohasi rivojlanishi uchun tòsiqlar uchrashi mumkin. Hizirgi kunda psixologiya sohasi bòyicha juda kòp kamchiliklar kuzatilmoqda.*

**Kalit sòzlar.** *Psixologiya, Rossiya Federatsiyasi, Tibbiyot OTM*

Psixologiya fanlari mundarijasini belgilashda bizningcha, bir qator kamchiliklarga yo'qo'yilmoqda. Mamlakatimiz psixologiya fanida inson psixikasi ikki qatlamdan, ong va ongostidan iborat ekanligi hisobga olinmayapti. Dunyoda ko'zga ko'ringan olimlarning fikriga ko'ra, ong psixikaning 10 foizini, ongosti esa 90 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatimizdagi deyarli barcha psixolog olimlar psixikaning 10 foizini tashkil qiladigan ong bo'yicha dissertatsiyalar himoya qilganlar. Psixologiya fakultetlarining o'quv rejalariga ham faqat ong bilan bog'liq mavzular kiritilgan. Chunki sobiq ittifoqning psixologiya fakultetlarida ham faqat ong bilan bog'liq mavzular o'qitilar edi.

Bundan 50 yil avval amerikaliklarning ko'pchiligi o'zlarining oilaviy psixologiga ega bo'lgan. Bizning mamlakatimizdagi poliklinikalarning ko'pchiligida hozirgi kunda ham tibbiy psixolog mavjud emas.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab sobiq ittifoqda psixologiyaga e'tibor biroz kuchaydi. Lekin ko'p vaqt yutqizilgan edi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin O'zbekistonda psixologiya faniga ko'proq e'tibor berila boshlandi. Mamlakat oliy o'quv yurtlaridagi psixologiya fakulteti va yo'nalishlariga har yili 800ga yaqin talaba qabul qilinmoqda. Bu sobiq ittifoq davriga qaraganda 30 baravardan ortiqroqni tashkil qiladi. Lekin miqdoriy jihatga yetarli e'tibor berilgan bo'lsada, ta'lim sifatiga yetarli e'tibor berilmadi.

Mamlakatimizda yigirmadan ortiq fan doktorlari, yuzdan ortiq fan nomzodlari bo'lishiga qaramay faqat 1–2 dissertatsiya ongosti bilan bog'liq mavzularda himoya qilingan. Ular ham nomzodlik dissertatsiyalari. Ongosti bilan bog'liq mavzular naqadar muhim ekaniga qaramay, ular deyarli ishlanmagani uchun juda ko'p muammolar vujudga kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda, Rossiya Federeratsiyasi tibbiy OTMlarida psixologiyaning eng zamonaviy yo'nalishlari: psixokardiologiya, psixodermatologiya, psixoimmunologiya, psixoonkologiya, psixoendokrinologiya singari qator fanlar o'qitilmoqda. Bu mamlakatlarda

kardiolog mutaxassisligini egallayotgan talaba psixokardiologiyani, endokrinologiya mutaxassisligini egallayotgan talaba psixoendokrinologiyani, bo'lg'usi onkolog psixoonkologiyani egallashi shart hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining "Respublikada psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash va psixologik xizmat tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori loyihasi joylashtirildi. Hujjatda qayd etilishicha, olib borilayotgan ishlar ko'lamiga qaramasdan sohada zudlik bilan bartaraf etilishi talab etiladigan qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:birinchidan, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning psixologik holati diagnostikasiga ixtisoslashgan psixolog kadrlar hamda tashkilotlar mavjud bo'lsa-da, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni amalga oshiradigan yagona tuzilmaning mavjud emasligi psixologik xizmatlar faoliyati samaradorligining past darajada qolishiga ta'sir ko'rsatmoqda;

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, psixologiya o'qitishni qulaylashtirish va shakllantirishning yana bir asosiy yo'li —o'qituvchilarga va talabalarga belgilangan o'quv qo'llanmalari, darsliklar, uslubiy ko'rsatmalar, tavsiyalar, ishlanmalar ishlab chiqishdir. Ushbu masala yechimining navbatdagi yo'li — har bir psixolog o'qituvchini attestatsiyadan o'tkazish, shartnoma yordamida ishlash mezoniga rioya qilishdan iboratdir. Mazkur muammo rivojlangan davlatlarda allaqachon o'z yechimini topgandir

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Toshimov R.YU., G'oziev E.G'. Zamonaviy individual va guruhiy psixologiya. T. Universitet, 2003.
2. G'oziev E.G'. Psixologiya muammolari. T. "Universitet", 2000.
3. Z. T. Nishonova "Oliy maktab psixologiyasi" Toshkent 2003